

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

YER TO'G'RISIDA

LexUZ sharhi

Mazkur Qonun O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1998-yil 30-apreldagi 599-I-sonli "O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksini amalga kiritish tartibi to'g'risida"gi qaroriga muvofiq o'z kuchini yo'qotgan.

LexUZ sharhi

O'zbekiston Respublikasining "O'zbekiston SSR konstitutsiyasi (asosiy qonuni)ga o'zgartishlar kiritish to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq mazkur Qonunning nomidagi hamda matnidagi "O'zbekiston SSR" degan so'zlar tegishli kelishikdagi "O'zbekiston Respublikasi" degan so'zlar bilan almashtirilgan.

LexUZ sharhi

O'zbekiston Respublikasining "Yer to'g'risidagi" O'zbekiston Respublikasining Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonunining 34-bandiga muvofiq, mazkur Qonunning 1, 2, 3, 9—18, 20—25, 28, 30—34, 40—48, 50—56, 60—62 va 64-moddalardagi "Qoraqalpog'iston ASSR Oliy Soveti", "Qoraqalpog'iston ASSR Ministrlar Soveti", "va Qoraqalpog'iston ASSR", "Qoraqalpog'iston Oliy Sovetining qarorlari" degan so'zlar, shuningdek, 1, 7, 9, 10, 12, 18, 24, 25, 41—48, 50, 54—56 va 60-moddalardagi "SSR Ittifoqi" degan so'zlar chiqarib tashlangan.

O'zbekiston Respublikasining Yer to'g'risidagi Qonuni yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish, tuproqning unumdorligini tiklash, tabiiy muhitni asrash va yaxshilash uchun, xo'jalik yuritishning hamma shakllarini teng huquqlar asosida rivojlantirish uchun sharoit yaratish maqsadida yer munosabatlarini tartibga soladi.

I. UMUMIY QOIDALAR

1-modda. O'zbekiston Respublikasining yer to'g'risidagi qonunlari

Oldingi tahrirga qarang.

O'zbekiston Respublikasida yer munosabatlari ushbu Qonun bilan va O'zbekiston Respublikasining yer to'g'risidagi boshqa qonun hujjatlari bilan tartibga solib boriladi.

(1-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi 439-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1992-y., 2-son, 84-modda)

Tog', o'rmon va suv bilan bog'liq munosabatlar, o'simlik va hayvonot dunyosidan, shuningdek atmosfera havosidan foydalanish va ularni asrashga oid munosabatlar O'zbekiston Respublikasining maxsus qonunlari bilan tartibga solinadi.

2-modda. Yer — O'zbekiston Respublikasi mulki

Yer umummilliy boylikdir, undan oqilona foydalanish zarur va u davlat muhofazasidadir.

Oldingi tahrirga qarang.

Yer uchastkalari quyidagilarga mulk qilib berilishi mumkin:

yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga savdo va xizmat ko'rsatish sohasi obyektlari shu obyektlar joylashgan yer uchastkalari bilan birga xususiy lashtirilayotganda;

chet ellik yuridik va jismoniy shaxslarga — diplomatiya korpusi xodimlariga, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan matbuot vakillariga, firmalar, kompaniyalar va xalqaro tashkilotlar doimiy vakolatxonalarining xodimlariga, chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarda doimiy asosda ishlovchi shaxslarga, shuningdek respublikada doimiy istiqomat qilayotgan va istiqomat qilish uchun guvohnomasi bo'lgan shaxslarga turar joy binolari shu binolar joylashgan yer uchastkalari bilan birga sotilayotganda;

diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarga vakolatxona binosi, shu jumladan vakolatxona boshlig'i qarorgohi sifatida foydalanib kelinayotgan binolar yoki binolarning bir qismi, shu binolar joylashgan yer uchastkalari bilan birga, shuningdek, mazkur vakolatxonalarning binolarini qurish uchun yer uchastkalari sotilayotganda.

(2-moddaning ikkinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 231-I-son [Qonuniga muvofiq to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1996-y., 5-6-son, 69-modda\)](#)

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari yer uchastkasi olish huquqiga egadirlar, uni berish shartlari va tartibi ushbu Qonun bilan hamda O'zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

3-modda. Yerlarning tarkibi

O'zbekiston Respublikasining barcha yerlari qaysi maqsadda foydalanishiga qarab quyidagilarga bo'linadi:

1) qishloq xo'jalik yerlari;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

2) aholi punktlarining yerlari (shaharlar, posyolkalar va qishloq aholi punktlari yerlari);

(3-modda birinchi qismining 2-bandida O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 859-XII-son [Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 6-son, 243-modda\)](#)

3) sanoat, transport, aloqa, mudofaa yerlari va boshqa yerlar;

4) tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish, dam olishga va tarixiy-madaniy maqsadlarga mo'ljallangan yerlar;

5) o'rmon fondi yerlari;

6) suv fondi yerlari;

7) zaxira yerlar.

Kam sonli xalqlar va etnik guruhlar yashaydigan va xo'jalik yuritadigan joylarda O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan mazkur toifadagi yerlardan foydalanishning alohida tartibi o'rnatilishi mumkin.

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

4-modda. Posyolka va qishloqlar o'zini o'zi boshqaruv idoralarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar posyolka va qishloqlar o'zini o'zi boshqaruv idoralarining ixtiyorida bo'ladi:

shaxsiy yordamchi xo'jalikni yuritish uchun beriladigan yer uchastkalari katta-kichikligining me'yorlarini tasdiqlash;

posyolkalar va qishloqlarning hududidagi yerlardan foydalanishni va ularni muhofaza etishni nazorat qilish;

o'z ixtiyorlariga berilgan yer zaxiralarini tasarruf etish;

yer uchastkasining katta-kichikligidan qat'i nazar, qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yerlari tarkibiga kirmaydigan posyolka va qishloq aholi punktlari doirasidagi yerlarni egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga berish, shuningdek yerlarni olib qo'yish;

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

yer uchastkalariga mulkdorlik, yerga egalik qilish, undan foydalanish huquqlarini shuningdek yerni ijaraga olish shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish;

(4-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentabrdagi 2022-XII-son [Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1994-y., 11-12-son, 285-modda\)](#)

fuqarolarga shaxsiy yordamchi xo'jalik yuritish uchun, uy-joy qurish va unga xizmat ko'rsatish uchun, shuningdek pichanzor va mol boqish uchun berib qo'yilgan yer uchun haq olish;

ushbu moddaning [beshinchi xatboshisida](#) belgilangan tartibda yer berib qo'yilgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning yerga egalik qilish hamda undan foydalanish huquqlarini to'xtatish.

(4-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 859-XII-son [Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 6-son, 243-modda\)](#)

[Oldingi tahrirga qarang.](#)

5-modda. Hokimiyat shahar idoralarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar hokimiyatning shahar idoralari ixtiyorida bo'ladi:

shahar doirasidagi yerlardan foydalanishni va ularni muhofaza qilishni nazorat etish;

yer uchastkasining katta-kichikligidan qat'i nazar, shahar doirasida egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga yer berish, shuningdek yerni olib qo'yish, qishloq xo'jaligi korxonalari, muassasalari va tashkilotlarining yerlari bundan mustasno;

Oldingi tahrirga qarang.

yer uchastkalarini fuqarolarning meros qilib qoldiriladigan umrbod egaligiga kim oshdi asosida sotish;

(5-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 6-maydagi 70-I-son Qonuniga muvofiq to'rtinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995-y., 6-son, 118-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

yer uchastkalariga mulkdorlik, yerga egalik qilish, undan foydalanish huquqlarini shuningdek yerni ijaraga olish shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish;

(5-modda birinchi qismining to'rtinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentabrdagi 2022-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1994-y., 11-12-son, 285-modda)

shahar doirasida fuqarolarga, korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga berib qo'yilgan yer uchun yer solig'i va ijara haqi undirish;

ushbu modda birinchi qismining **uchinchi xatboshisida** belgilab qo'yilgan tartibda yer berilgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar va fuqarolarning yerga egalik qilish va undan foydalanish huquqlarini to'xtatish;

yer-kadastr hujjatlarining yuritilishini tashkil etish;

yer tuzish ishlarini uyushtirish.

Oldingi tahrirga qarang.

Toshkent shahrining hokimiyat organlari diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarga mazkur vakolatxonalarning binolarini, shu jumladan, vakolatxona boshlig'ining qarorgohini qurish uchun yer uchastkalarini mulk qilib sotishlari ham mumkin.

(5-modda O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 231-I-son Qonuniga muvofiq ikkinchi qism bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1996-y., 5-6-son, 69-modda)

Hokimiyatning shahar tarkibiga kiruvchi tuman idoralari yer munosabatlarini tartibga solish sohasida hal etadigan masalalar doirasini hokimiyatning shahar idoralari belgilab qo'yadilar.

(5-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 859-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 6-son, 243-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

6-modda. Hokimiyat tuman idoralarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar hokimiyat tuman idoralarining ixtiyorida bo'ladi:

yerlardan foydalanishni va uni muhofaza qilishni nazorat etish;

fuqarolarga, korxonalarga, muassasalarga, tashkilotlarga, dehqon xo'jaliklariga egalik qilish, foydalanish uchun hamda ijaraga yer berish, shuningdek tubdan yaxshilash ishlari amalga oshirilgan sug'oriladigan yerlar, pichanzorlar va yaylovlardan tashqari qishloq xo'jaligi uchun mo'ljallangan yerlarni; birinchi guruhga mansub o'rmonlar bilan qoplangan yerlardan tashqari o'rmon fondi yerlarini; sanoat, transport, aloqa, mudofaa obyektlari egallab turgan va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlarni; suv fondi yerlarini olib qo'yish — bitta yer egasiga va bitta yerdan foydalanuvchiga 10 gektargacha maydonda;

fuqarolarga, korxonalarga, muassasalarga va tashkilotlarga zaxira yerlardan yer uchastkasining katta-kichikligidan qat'i nazar, egalik qilish, foydalanish uchun hamda ijaraga yer berish;

Oldingi tahrirga qarang.

yer uchastkalarini fuqarolarning meros qilib qoldiriladigan umrbod egaligiga kim oshdi asosida sotish;

(6-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1995-yil 6-maydagi 70-I-son Qonuniga muvofiq beshinchi xatboshi bilan to'ldirilgan — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1995-y., 6-son, 118-modda)

ushbu Qonunning 13-moddasida belgilangan egalik qilish va foydalanish huquqlarini to'xtatish sabablari belgilangan tartibda tasdiqlanganidan keyin yerga egalik qilish va undan foydalanish huquqlarini to'xtatib qo'yish, posyolka va qishloq o'zini o'zi boshqaruv idoralari, hokimiyatning tuman bo'ysunuvidagi shahar idoralarining vakolat doirasiga kiruvchi hollar bundan mustasno;

Oldingi tahrirga qarang.

yer uchastkalariga mulkdorlik, yerga egalik qilish, undan foydalanish huquqlarini shuningdek yerni ijaraga olish shartnomalarini ro'yxatdan o'tkazish;

(6-modda birinchi qismining oltinchi xatboshisi O'zbekiston Respublikasining 1994-yil 23-sentabrdagi 2022-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1994-y., 11-12-son, 285-modda)

jamoat xo'jaliklari tuzilgan, qayta tashkil etilgan va tugatilgan hollarda ularning yerga egalik qilishi masalalarini hal etish;

yer-kadastr hujjatlarining yuritilishini tashkil etish;

yer tuzish ishlarini tashkil etish;

fuqarolarga jamoat bog'dorchiligi va uzumchiligi uchun, shuningdek korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga berib qo'yilgan yer uchun yer solig'i va ijara haqi undirish.

Hokimiyatning tuman bo'ysunuvidagi shahar idoralari yer munosabatlarini tartibga solish sohasida hal etadigan masalalar doirasini hokimiyatning tuman idoralari belgilab qo'yadilar.

(6-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 859-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 6-son, 243-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

7-modda. Hokimiyat viloyat idoralarining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar viloyat hokimiyat idoralarining ixtiyorida bo'ladi:

yerlardan foydalanishni va ularni muhofaza qilishni nazorat etish;

korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga qishloq xo'jalik ehtiyojlari uchun, davlat va jamoatning boshqa ehtiyojlari uchun ushbu moddaning beshinchi xatboshisida aytilgan shartlarga rioya qilgan holda egalik qilish, foydalanish uchun va ijaraga yer berish;

diplomatiya vakolatxonalari va ularga tenglashtirilgan, O'zbekiston Respublikasida akkreditatsiya qilingan xalqaro tashkilotlarga mazkur vakolatxonalarning binolarini, shu jumladan vakolatxona boshlig'i qarorgohini qurish uchun yer uchastkalarini mulk qilib sotish;

O'zbekiston Respublikasi qonunlari bilan belgilab qo'yiladigan ro'yxatga muvofiq olib qo'yiladigan yerlar, shu jumladan alohida muhofaza etiladigan tabiiy hamda tarixiy-madaniy obyektlar va hududlar egallab turgan yerlar, shahar atrofi yerlari va shaharlarning yashil zonalari yerlari, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv yurtlarining tajriba maydonlari, birinchi guruhga mansub o'rmonlarning yerlaridan tashqari barcha yerlarni katta-kichikligidan qat'i nazar olib qo'yish;

yer-kadastr hujjatlarining yuritilishini tashkil etish;

yer tuzish ishlarini tashkil etish.

(7-modda O'zbekiston Respublikasining 1996-yil 26-apreldagi 231-I-son Qonuni tahririda — Oliy Majlis Axborotnomasi, 1996-y., 5-6-son, 69-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

8-modda. Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashining va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi Oliy Kengashi va Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari Qoraqalpog'iston

Respublikasi qonunlari bilan belgilab qo'yiladi.

(8-modda O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 20-noyabrdagi 439-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1992-y., 2-son, 84-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

9-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining yer munosabatlarini tartibga solish sohasidagi vakolatlari

Yer munosabatlarini tartibga solish sohasida quyidagilar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ixtiyorida bo'ladi:

O'zbekiston Respublikasi hududidagi yerlarni posyolka va qishloq o'zini o'zi boshqaruv idoralari bilan, hokimiyatning tuman, shahar va viloyat idoralari bilan, shuningdek yerga egalik qiluvchilar va yerdan foydalanuvchilar bilan kelishilgan holda tasarruf etish;

yerlardan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini oshirish, tabiatni qo'riqlash sohasidagi boshqa tadbirlar bilan kompleks tarzda yer resurslarini muhofaza qilish yuzasidan hokimiyat mahalliy idoralari bilan birgalikda respublika dasturlarini ishlab chiqish va ularni bajarish;

yer tuzishni hamda Davlat yer kadastrini yuritishni tashkil etish.

(9-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 859-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 6-son, 243-modda)

10-modda. Yerga egalik qilish va undan foydalanish

Yer qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligini yuritish uchun korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga doimiy egalik qilish uchun, qonunlarda ko'zda tutilgan hollarda esa boshqa maqsadlar uchun ham beriladi.

Doimiy yoki vaqtincha foydalanish uchun yer:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga;

sanoat, transport hamda qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan boshqa korxonalar, muassasalar va tashkilotlarga;

mudofaa ehtiyojlari uchun;

diniy tashkilotlarga;

chet el yuridik shaxslari ishtirokidagi qo'shma korxonalarga, xalqaro birlashmalarga hamda tashkilotlarga beriladi.

(10-modda birinchi va ikkinchi qismlari O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 859-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 6-son, 243-modda)

Oldingi tahrirga qarang.

Dehqon xo'jaligi yuritish uchun ayrim shaxslarga yer uchastkalari meros qilib qoldirish huquqi bilan umrbod egalik qilish uchun va foydalanish uchun beriladi.

(10-modda O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 859-XII-son Qonuniga muvofiq uchinchi qism bilan to'ldirilgan — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 6-son, 243-modda)

O'zbekiston Respublikasi qonunlarida ko'zda tutilgan hollarda yer foydalanish uchun boshqa tashkilotlar va shaxslarga ham beriladi.

Yerdan vaqtincha foydalanish qisqa muddatli — uch yilgacha va uzoq muddatli — uch yildan o'n yilgacha bo'lishi mumkin. Ishlab chiqarish ehtiyojlari talab qilgan hollarda bu muddatlar tegishli suratda qisqa muddatli yoki uzoq muddatli vaqtincha foydalanish muddatlaridan ortiq bo'lmagan davrga uzaytirilishi mumkin. Yer uchastkalaridan vaqtincha foydalanish muddatlarini ana shu uchastkalarni bergan idoralar uzaytiradi.

Oldingi tahrirga qarang.

Yaylov chorvachiligi uchun yer uchastkalari qishloq xo'jalik korxonalariga, muassasalar hamda tashkilotlarga 25 yilgacha muddatga berilishi mumkin.

(10-moddaning oltinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 1993-yil 7-maydagi 859-XII-son Qonuni tahririda — Oliy Kengash Axborotnomasi, 1993-y., 6-son, 243-modda)

Import va inshootga mulkchilik huquqi o'tgan taqdirda ana shu obyektlar bilan birgalikda yer uchastkasiga egalik qilish huquqi yoki undan foydalanish huquqi ham O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilab qo'yiladigan tartibda va shartlar asosida o'tadi.